

NEYROLINGVISTIKANING FAN SIFATIDA SHAKLLANISHI HAMDA O‘RGANILISHI

Komilova Shaydoxon Shuhrat qizi

**Lingvistika: o‘zbek tili yo‘nalishi 1-bosqich magistranti
Urganch davlat universiteti**

Annotatsiya: Ushbu maqolada neyrolingvistika sohasining shakllanishi, uning asosiy vazifalari, o‘rganilish tarixi, nutqning paydo bo‘lishida neyronlarning muhim roli va lingvistika bilan neurologiyaning o‘zaro aloqasi chuqur tahlil qilingan. Neyrolingvistikaning rivojlanish jarayonida ilmiy izlanishlar, uning amaliy qo‘llanilishi va bu sohaning zamonaviy fanlar bilan bog‘liqligi ko‘rib chiqilgan. Ishda, shuningdek, nutq faoliyatining neyron asoslari va tilning miya jarayonlariga qanday ta’sir ko‘rsatishi ham yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *neurologiya, neyron, miya yarimshari, afaziya, nutq, NLP.*

Bugungi zamonaviy antropasnetrik tilshunoslikning diqqat markazida lingvistik kommunikatsiya, nutqiy faoliyat subyekti, ya’ni shaxs tushunchasi turibdi. Ana shunday yo‘nalishlardan biri neyrolingvistika sohasidir.

Neyrolingvistika bevosita neurologiya, lingvistika va psixologiya fanlari kesishuvida yuzaga kelgan tilshunoslikning fan tarmog‘i sifatida, miyada tilning aks etishi, hosil bo‘lish jarayonlari, neyronlarning nutq organlariga ta’sir doirasi, insonning ongli faoliyatida tilning ifodalanishi kabi bir qator tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Inson miyasidagi nerv hujayralari ya’ni neyronlar murakkab xarakterli bo‘lib, asab sistemasining tilni, nutq birliklarini yuzaga chiqarishdagi o‘rni bugun kunning eng dolzarb masalalaridan biri sifatida talqin qilinmoq.

Neyrolingvistika maxsus yo‘nalish sifatida o‘tgan asrning 40-yillarida yuzaga chiqq boshladi. Bu oqimning yuzaga chiqishida E.K.Trager, A.Xeker, A.A.Leontyev, A.R.Luriya, E.S.Beyn, R.M.Boskis, O.S.Vinogradova, N.A.Eysler singari bir qator olimlarning tadqiqotlari asos bo‘ldi. Jahon tilshunosligida neyrolingvistikaga oid ilk manba muallifi Luriyadir. Olim o‘zining “Neyrolingvistikaning asosiy muammolari” asarida bu soha va uning o‘rganish obyekti, kuzatuv, o‘z ichiga oladigan masalalari haqida dastlabki qarashlarni bayon etdi [3]. 1974-yildan Garri Uitker tomonidan “Brain and language” jurnaliga asos



solinishi neyrolingvistikaning ommalashishiga, keng jamoatchilining diqqat markazida bo‘lishiga xizmat qildi.

Fanning obykti sifatida miyaning nutqiy va fikriy qobiliyati, xotira va hissiyotlarning neyronlardagi ko‘rinishi, turli hayotiy vaziyat, yosh doirasidagi o‘zgarishlarning miyya orqali til uslubiga, moddiy ifodalanishiga ta‘sirini o‘rganishdan iborat. Neyrolingvistika fanining muammolari bevosita inson bosh miyya faoliyati bilan bog‘liq jarayonligi sabab, doimiy o‘zgarishda, rivojlanishda bo‘lib, uning paradigmasi, qoidalari va mazmuni qat‘iy emas. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, neyrolingvistika bosh miyadagi buzilishlar, shikastlanishlar va boshqa turli oqibatlariga ko‘ra nutq faoliyatiga putur yetgan vaziyatlarni o‘nglashni o‘z oldiga maqsad qilib olgan. Miyadagi nutq hosil bo‘lish o‘rniga zarar yetishi oqibatida, nutqiy faoliyatda turli kemptikliklar, fikrlarni to‘g‘ri, izchil va ravon yetkazib berishda to‘siqlarning yuzaga chiqishi va ularni davolash xususida Ibn Sino va Beruniy asarlarida ma‘lumotlarni kuzatishimiz mumkin.

Neyrolingvistika psixolingvistika bilan doimiy aloqada hisoblanib ba‘zan bu ikki yo‘nalish obyektlari bir-biri bilan aralashib ketadi. Biroq “Psixolingvistika buni insondagi psixologik jarayonlar bilan bog‘lab tushuntirishga harakat qiladi. Neyrolingvistika esa miya strukturalari va funksiyalari bilan bog‘lab o‘rganadi”, - deya ta‘kidlaydi olimi Iroda Azimova. Boshqacharoq aytganimizda, psixolingvistika ma‘lum tashqi vaziyat yuzasidan insondagi emotsiyaga, ichki ruhiy holatga asoslanib faoliyat olib borsa, neyrolingvistika inson miyasidagi tuzilishga va neyronlarning faollik darajasiga bog‘liq holda tilni tadqiq etadi.

Tadqiqotlar natijasiga ko‘ra inson miyasi ikkitaga ajratiladi, ya‘ni miya va miyacha. Miyacha-tana harakatlariga javobgardir. Miya o‘ng va chap yarimshar miyaga ajralgan holda tadqiq etilib, chap yarimshar miya tillik miya deb yuritiladi[1]. U nutq markazi, so‘z bilan bog‘liq tafakkur jarayonlarini bajarib boradi. O‘ng yarimsharmiya esa borliqni so‘zsiz, idrok qilish, talqin qilish vazifasini o‘tab, bunda asosiy bilish ko‘z orqali amalga oshiriladi.

1836-yili Fransiyaning kichik shahridagi shifokorlar yig‘inida oddiy vrach Mark Daks so‘zga chiqadi va o‘z tadqiqotlarida aniqlagan xulosalarni bayon qiladi. Uning ma‘ruzasida quyidagicha fikrlar ta‘kidlangandi: “Men bosh miyaning chap yarimshari zararlangan bemorlarning barchasida nutq buzilishlarini kuzatdim. Ammo o‘ng yarimshari shikastlangan bemorlarning birortasida ham nutq buzilishi uchramadi. Demak, aynan bosh miyaning chap yarimshari nutq uchun mas‘ul, ya‘ni

u yerda nutq markazi joylashgan”. Bu nazariyagacha nutq uchun bosh miyaning ikkala yarimshari ham javob beradi, deb faraz qilinardi. Mark Daks o‘z qarashlarini anatomik teshkiruvlar asosida ko‘rsatib bermagani uchun o‘sha paytda e‘tibordan chetda qolib, og‘zaki ma‘lumotlar sifatida ahamiyat berilmadi va tezda unutilib yuborildi.

1861-yilda anatomik olim P.Brokko o‘z tadqiqotida miya qismlaridan peshona chap yarimsharida bo‘ladigan shikastlanishlaridan kuzatib bordi. Kuzatish tadqiqotiga ko‘ra, miyaning bu a‘zosiga putur yetkanda, inson nutq ifoda qilish qobiliyatini yo‘qotadi, ammo boshqalar tomonidan gapirilgan axborotlarni to‘liq tushunib, idrok eta oladi. 1974-yilda esa nemis olimi K.Venriki miyaning chakka egri yarimsharida bo‘ladigan zararlanishlarni tadqiq qiladi. Olimning aniqlashidan, bunday holatda inson so‘zlay olishi, ammo o‘zgalarning muloqotini, nutqlarini tushunmasligi oydinlashadi. Ko‘rinadiki, neyrolingvistika nafaqat tilning moddiylashuvini, balki uning buzilish sabablarini ham o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limidir.

Neyrolingvistikani tadqiq qilishda, genderlik jihatlari, yosh tafovutlari, bir tillilik va ko‘p tillilik, ma‘naviy holat, so‘zlarning ishlatilish o‘rni va jozibasini, pauza, temp, ijtimoiy soha doirasi, inson e‘tiqodi masalasi, gapirish intonatsiyasi, til grammatikasining bilish darajasi muhim material hisoblanadi. Jumladan, o‘g‘il bolalar va qiz bolalarning miya faoliyatidagi neyronlarning faollik darajasiga ko‘ra ular ifoda etayotgan til birliklaridagi va nutqning mazmuniy ko‘rinishidagi, bayon qilinishidagi farqlarni kuzatish mumkin bo‘ladi. Yoki yosh tafovuti bilan bog‘liq jarayonlarni tahlilga tortganimizda, ma‘lum yoshdan keyin zararlanib, yo‘q bo‘lib boruvchi neyron tolalari natijasida inson obektiv borliq haqidagi bilimlarni unutilishi, nutqni bayon qilish va idrok etish tezligining susuyishi yoki butkul yo‘qolishi, xotira tizmidagi buzilishlar natijasida katta lug‘at boyligining unutila borishi, yoki kichik yosh doirasidagilar nutqining to‘la shakllanmagan, ifodaning ravon bo‘lmagan bosqichidan o‘tib borishi aniqlanadi. Ya‘ni bu jarayon zidlanish asosida kechadi (yosh bo‘yicha olganda, dastlab “quyidan yuqoriga” yosh ulug‘aygach “yuqoridan quyiga”).

Ko‘p tilni biluvchi poligotlarning miyasidagi nutq zonasiga zarar yetkanda, neyrolingvistikaning qirralarini o‘rganish uchun qulay vaziyat sanaladi[5]. Chunki, bu vaqtda shaxslar bir tilni butkul unutilishi yoki ma‘lum darajada saqlab qolib,



boshqa tillarni unutishi, yoki barcha til birliklarini bir-biri qorishtirib yuborishi mumkin.

Neyrolingvistika yuqoridagi kabi holatlarni oldini olish, davo topish masalalari bilan shug‘ullanadi. Neyrolingvistikada til, xususan, nutq bilan bog‘liq shunday holatlar mavjudki, ular alohida jarayon sifatida o‘rganiladi. Malasan, afaziya hodisasini olsak, bunda afaziya hodisasiga duchor bo‘lgan bemorlarda birovning nutqini tushunishda, o‘qishda, yozishda, nutq bayon qilishda zaiflashish, qobiliyatsizlik holatlari yuzaga chiqishi mumkin. Afaziyaning kelib chiqish sabablari miyaga qon quyilishi, miya o‘simtasi, biror bir tashqi mexanik zarba, shikast kabilar bo‘lishi mumkin. Afaziyaning bir nechta tasniflari mavjud bo‘lib, ular Luriya tomonida sistemlashtirilib, ma‘lum guruhlariga birlashtirilgan. Bular total, qisman, motor, sensor, harakat, akustik, semantik afaziyalardir [2].

Miya faoliyatining buzilishi nutqiy jarayonga juda katta ta‘sir ko‘rsatadi. Miya faoliyati buzilishi turlicha bo‘ladi: vaqtincha, doimiy, tug‘ma yoki orttirilgan [4]. Ruhiy zarbalar, qattiq siqilishlar, kuchli qo‘rquv va hayajon, haddan tashqari tushkunlik, xavotir bundan tashqari, zararli ichimliklar va chekish vositalariga bo‘lgan mutelik miya faoliyating vaqtincha yoki orttirilgan buzilishlariga asos bo‘ladi. Ayni shu holatlarni homilador ayol boshdan kechirishi natijasida farzandda tug‘ma miya faoliyati nuqsoni, buzilishi kuzatilishi mumkin. Nutq har bir shaxsda individual shaklda rivojlanar ekan, uning til birliklari, nutq jarayoni bevosita o‘zi mansub bo‘lgan muhit va o‘sh muhitning miyaga beradigan axborotlari, ta‘siri tufayli hosil bo‘ladi.

Neyrolingvistikaning taraqqiy etayotgan yo‘nalishlarida biri sifatida biz, NLPni, ya‘ni insonni til va so‘zlar yordamida dasturlashni ko‘rsatishimiz mumkin. Bunday neyrolingvistik dasturlash orqali bugungi kunda ko‘plab insonlar shaxslarga ta‘sir qilishga urinmoqdalar.

Neyrolingvistik dasturlashga oid ilk ilmiy ish hisobotlari o‘tgan asrning 70-yillarida paydo bo‘lgan. Amerikalik olimlardan Jon Grinder va Richard Bendlerlar neyrolingvistik dasturlar asoschilari hisoblanadilar. Neyrolingvistik dasturlar turlicha bo‘lishi mumkin: har qanday hissiyotdan eng qisqa muddatda chiqib ketish; (qo‘rquv, depressiya), insonning o‘ziga qo‘ygan turli xil chegara va cheklolarni bartaraf etish (past o‘zlashtiruvchi, ma‘lum hayoti vaziyatlardan cho‘chib o‘z qobig‘iga o‘ralib olganlar); zararli illatlardan vos kechish (ichish, chekish) uchun qo‘llanadigan dasturlar.



Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, insonning nutq ifoda eta olish qobiliyati, o‘zgalarning nutqini tushunishi va qayta ishlay olishi, borliqdagi bilimlarni o‘zlashtirgan holda tafakkur qila olishi bevosita miya faoliyatining tashkil qilinishiga bog‘liq ekanligini neyrolingvistika sohasi isbotlab bergan. Til sistemasi inson miyasida belgilar ko‘rinishida mavjud bo‘lib, nutqiy jarayonda kodlash va dekodlash orqali, axborotlarni qabul qilish va uzashatishda yuzaga chiqadi. Neyrolingvistika shu jarayondagi til birliklaridan miya faoliyatining buzilishi orqali muloqotdagi uzilishlarning yuzaga chiqishi, turli psixologik ta’sirlar va tashqi muhit, ichki ruhiy holat natijasida paydo bo‘lib, nutqqa putur yetkazadigan murakkab omillarni tadqiq etadi. Nutqiy faoliyatning yuzaga kelishi, faoliyat a’zolarining bir-birini tushunishda muhim vazifada turadigan miya mexanizmini o‘rganadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Egamberdiyeva. H.S. Zamonaviy tilshunoslikda neyrolingvistika sohasining paydo bo‘lishi va uning ahamiyati. B-2.
2. <http://fayllar.org/public/>.
3. Muslixiddinova. R.H Neyrolingvistika: tahlil va talqin. Academic research in Educational Sciences. Volume 5. Issue 1. B-62. 2024
4. Otaqulova. A.O. Badiiy matn qahramonlarining neyrolingvistik tahlili. Golden Brain journal. Volume 1. Issue 33. B-103
5. Primov. A.I. Tilshunoslikning dolzarb muammolari. Urganch-2019. B-55

Research Science and Innovation House

